

FAN VA TABIAT MARKAZIDA O‘YIN TA’LIM STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH

Xojamiyarov S.Ch.

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti, p f.f.d.,

Muhammadvaliyeva N.M.

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fan va tabiat markazlarida o‘yin ta’lim strategiyasidan foydalanish tahlil qilingan. Fan va tabiat markazlarida o‘yin ta’lim strategiyasidan foydalanish orqali ularni tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib yetkazib berish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *strategiya, o‘yin, tabiat, ta’lim tarbiya, fan, muloqat madaniyati, didaktik.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется использование игровых методов обучения в научно-исследовательских центрах, посвященных изучению природы. Цель состоит в том, чтобы с помощью игровых методов обучения в таких центрах передавать знания учащимся в понятной форме.

Ключевые слова: *стратегия, игра, природа, образование, наука, культура общения, дидактика.*

ABSTRACT

This article analyzes the use of game-based learning strategies in science and nature centers. The aim is to convey knowledge to students in a way that is understandable by using game-based learning strategies in science and nature centers.

Keywords: *strategy, game, nature, education, science, communication culture, didactics.*

KIRISH

Hozirgi kunda fan va tabiat markazlarida o‘yin ta’lim strategiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fan va tabiat markazlarida tarbiyalanuvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridan foydalangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini

tashkil etish masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir. Bu O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi joriy etilishi hamda ta’limning o‘quv-intizomiy modelidan shaxsga yo‘naltirilgan modeliga o‘tish bilan bog‘liq. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi mazmunini amalga oshirishning asosiy talabi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga javob berish maqsadida bolalar rivojlantirish markazlarini tashkil etishdir. Rivojlantirish markazlarida bir vaqtning o‘zida kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarni ham, kattaroq bolalarni ham faol kommunikativ-nutqiy va kognitiv-ijodiy faoliyatga qamrab olish mumkin, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash shakli va ular uchun yetakchi faoliyat o‘yindir. Shu sababli pedagog-amaliyotchilar ta’lim-tarbiya jarayonini yangilashga katta qiziqish uyg‘otmoqda. Rivojlantirish markazlarida o‘yinni tashkil etish Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy maqsadi nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘yin faoliyati orqali mustaqil bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bola kattalar bilan bevosita muloqotida o‘zining ijtimoiy tajribasi va atrof-olam to‘g‘risidagi tasavvurlari tizimini shakllantiradi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida har bir MTT bolalar u yerda o‘tkazadigan vaqti va mazmunga qo‘yiladigan sanitar-gigienik talablarga, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kun tartibini o‘rnatish va tashkil etish me‘yorlariga muvofiq o‘z kun tartibini ishlab chiqishi imkoni borligi ko‘zda tutilgan. Shuni yodda tutish kerakki, o‘yin-ta’limiy faoliyat kunduzgi uyquni hisobga olganda kamida 15%, kunduzgi uyquni hisobga olmaganda kamida 38%, mustaqil o‘yin kamida 24% bo‘lishi kerak

- Rivojlantirish markazlari shunday tashkil etilganki, bu yerda har bir bola sevgan narsasini bajarish imkoniga ega. Markazlarda jihozlarni joylashtirish bolalarning umumiy qiziqishlariga ko‘ra kichik guruhlariga bo‘linib olishiga imkon beradi (qurilish, chizish, qo‘l mehnati, teatr va o‘yin faoliyati, tajriba-sinov va h.k.). Majburiy jihozlarga bilish faoliyatini faollashtiruvchi materiallar kiradi: o‘quv o‘yinlari, texnik qurilmalar, o‘yinchoqlar va boshq.

- Ko‘rgazmali qurollar va o‘yinchoqlar bolalarga erkin harakatlanishga xalaqit bermaydigan qilib joylashtiriladi.

- Bola atrofida maxsus rivojlantiruvchi muhit yaratiladi, unda u yashaydi va mustaqil o‘rganadi.

- Bolalarning erkin faoliyati ularni mustaqil izlanishga, tadqiqot jarayoniga qo‘shilishga, pedagogdan tayyor bilimlarni olmaslikka yordam beradi. Bu ularga

qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o‘zlarini ijodiy namoyon etish qobiliyati kabi fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Strategiya so‘zi yunoncha “stratos” (qo‘shin) va “agein” (boshqarish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab harbiy maqsadlarda ishlatilgan. Bugungi kunda bu atama hayotning turli jabhalarida keng qo‘llaniladi.

MTTda bolalarni ” Fan va tabiat” markazida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari quyidagilardir:

- Tut, terak, chinor, tol, qayrag‘ochlar haqida;
- Tulki, bo‘ri, ayiq, yo‘lbars, ilonlar haqida;
- Tovuq, xo‘roz, kurka, o‘rdak, g‘ozlar haqida;
- Ninachi, chumoli, chayon, qo‘ng‘iz, qurt, chigirtka, kapalak haqida;
- Erta gullaydigan o‘tsimon, butasimon o‘simliklar haqida;
- Qurbaqa, asalari, cho‘lbaqa haqida;
- Jonli va jonsiz tabiat haqida;
- Mehnat qurollari haqida;
- Tibbiy materiallar bilan ishlash haqida;
- Dorivor o‘simliklar bilan va ularni yig‘ish haqida;
- «Qizil kitob»ga kiritilgan noyob hayvon o‘simliklar haqida.

6-7 bolalar tabiat haqida quyidagi ko‘nikmalarni egallashi kerak:

- Ozoda va saranjomlikni;
- Atrof-muhitdagi turli-tuman narsalar bilan qilish madaniyati;
- Uy hayvonlarini parvarishlashi;
- Tabiatni muhofaza qilishning oddiy elementlari;
- Tut, chinor, terak, tollarni o‘zaro farqlay olishlari;
- Mevali va manzarali daraxtlarni farqlay olishlari;
- Yovvoyi hayvonlarni uy jonivorlaridan farqlay olish va ular bilan muomala qilish madaniyati;
- Tabiiy va sun‘iy o‘simliklar bilan tanishtirish;
- O‘simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan g‘amxo‘rlik, raxm shavqatda bo‘lish madaniyati va bilimni egallashlari lozim.

O‘zbekistonning tabiati – bola uchun kerakli bo‘lgan bilim va taasurotlarga ega bo‘lishga yordam beruvchi manba hisoblanadi. Atrof muhitda mavjud bo‘lgan qizqish bolalarda erta paydo bo‘ladi. Bolalar hamma narsani ko‘rib boradilar: Oromgohlarda, yo‘l ustidagi mehnatsevar chumoli, qalin o‘t ustidagi kichkinagina o‘rgimchak. Bundan tashqari tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, ranglar jilosi, turli-tuman hid, ovozlar bolalar diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Ular o‘zlari uchun yangi olamni kashf etadilar: Hamma narsani o‘z qullari bilan ushlab ko‘rishga, yaqindan his

qiladilar. Ekologik bilimlarni tanlab olishda ilmiylik prinsipi asosiy hisoblanadi. Pedagogik madaniyatning asosini bolalar tomonidan jonli va jonsiz tabiatning o‘zaro bog‘liqligi va ularning bir butunligini tushunish tashkil qiladi. Jonsiz tabiat tirik organizmning ehtiyojini qondiruvchi manba tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, baliq. Ular suvda hayot kechirishga moslashganlar: suv ularning shakliiy tuzilishi va hayot kechirish tarzini ochib berdi.

Hozirgi vaqtda bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda tabiat bilan insonning bir butun ekanligini oldinga suruvchi g‘oya to‘liq holda ochib berilishi kerak. Inson jonzot sifatida yashayotgan muhit bilan chambarchas bog‘liq holdi, tabiat va insonning o‘zaro harkatlari insonning atrof muhitga va tabiatning insonga ta’sirida namoyon bo‘ladi. Ekologiyaga oid bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘simlik, jonivor, inson, tirik organizm, jonsiz tabiat, muhit, yilning davri hisoblangan mavsum, tabiat va boshqa predmetlar to‘g‘risidagi tushunchalarni egallaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan ekologik bilimlar kelgusida maktablarda olinadigan ekologik ta’lim uchu asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasasi kechayoigan pedagogik jarayonda bolalar faoliyatini tashkil etishning turli xil shakllaridan foydalanib kelinmoqda. Mashg‘ulot, ekskursiya, bolalar kichik –kichik guruhlar bilan o‘kaziladi. Yashab turgan joy, tabiatni kuzatish, yoki tabiat quchog‘ida mehnat qilishni kichik guruhlar bilan yoki yakka tartibda tashkil qilish samarali natija beradi.

Jumladan, o‘rgatish jarayonida har hil usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: - ko‘rgazmali; - amaliy; - so‘zlashuv. O‘rganish usullari tarbiyachi va bolalarning faoliyat ko‘rsatish usullari. Bunda bilish, o‘rganish, hamda atrofdagi o‘rab turgan olamga nisbatan bo‘lgan tarbiya shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Mamlakatimizda qilinayotgan islohotlar, barcha sohalardagi rivojlanishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham tub o‘zgarishlar yasashni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhit bolalar ta’lim-tarbiyasiga Davlat talablari va «Ilk qadam» dasturi talablarini sifatli, uzluksiz, izchil hamda bolalarning yosh jihatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolaning boshlang‘ich tashabbuskorligini o‘stirish, bilimlarini amalda qo‘llashga faol harakat qilishdagi asosiy vositadir.

Bola amal qiladigan fan va tabiat rivojlantirish markazi undagi bilim va ko‘nikmani amaliyotda qo‘llash uchun axborot manbai bo‘lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, yangilikka undovchi, undagi malakani takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi. – T.: 2022.
2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish. Metodik qo‘llanma. – T.: 2018.
3. Djanpeisova G.E., Rasulxo‘jaeva M.A. “Tabiat bilan tanishtirish” O‘quv qo‘llanma T: Innovatsiya Ziyo, 2020-yil - 224 bet
4. Choriyevich, X. S. (2025). ORGANIZATION OF WORK FORMS IN PARTNERSHIP WITH PRESCHOOL EDUCATION AND FAMILY. SHOKH LIBRARY.
5. Choriyevich, X. S. D. (2025). BOLALARDA MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI. Scientific and methodological journal of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy, 2(1), 134-142.
6. Xojamiyarov, S. (2025). THE ROLE OF COOPERATION OF TEACHERS, EDUCATORS AND PARENTS IN DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN PRESCHOOL CHILDREN. Web of Teachers: Inderscience Research, 3(1), 87-93.
7. Xo, S. C., Nazarova, R. R., & Ibragimova, G. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ERTAK TERAPIYA ASOSIDA MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH. Academic research in educational sciences, (1), 96-99.
8. Хужамияров, С. Ч. ФОРМИРОВАНИЕ ЭТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 29.
9. Nafisa, A., Nargiza, M., Sadulla, K., & Dilmira, S. (2020). Development of independence, initiative and responsibility for preschool children in the process of approaching accessible labor activity. Journal of Critical Reviews, 7(5), 785-786.
10. OMONOVICH, K. D., UMIROVICH, A. O., NORQOBILOVNA, J. S., ABDUKUNDUZOVNA, B. G., CHORIEVICH, X. S. D., JURAKOBILOVICH, T. S., ... & ADASHVOEVICH, K. R. (2025). TEACHING METHODOLOGY OF HISTORICAL GEOGRAPHY THROUGH GEOSPATIAL AND IMMERSIVE TECHNOLOGIES COMPLETED WITH BIBLIOMETRIC ANALYSIS. Journal of Engineering Science and Technology, 20(6), 1935-1942.
11. Chorievich, K. S. (2020). The development of vocabulary in children of middle preschool age through the role-playing games. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(1).